



## TALABALARNI O‘QUVCHILARNING BILISHGA QIZIQISHINI RIVOJLANTIRISH FAOLIYATIGA TAYYORLASH TEKNOLOGIYASI

*Umnova M.Q.*

*Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

**Tayanch so‘zlar:** talaba, o‘quvchi, bilishga qiziqish, texnologiya, pedagogik oliy ta‘lim, pedagogik texnologiya, “Umumiy pedagogika”.

**Ключевые слова:** студент, читатель, интерес к учебе, технология, педагогическое высшее образование, педагогическая технология, «Общая педагогика».

**Key words:** student, reader, interest in learning, technology, higher pedagogical education, pedagogical technology, “General Pedagogy”.

### **РЕЗЮМЕ:**

Maqolada pedagogik oliy ta‘lim talabalarini “Umumiy pedagogika” fani misolida o‘quvchilarni bilishga qiziqishini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlashda “Qiziqib qiziqtirish” texnologiyasidan foydalanish, uning bosqichlari haqida tavsiflangan. Talabani mazkur texnologiya vositasida innovatsion ta‘lim usullaridan foydalanishni o‘rganishi kelgusidagi kasbiy faoliyatida qo‘llash uchun zamin yaratadi.

### **РЕЗЮМЕ:**

В статье описано использование технологии «Интересующий интересовать» и ее этапы в подготовке студентов педагогического вуза к деятельности по развитию интереса к учебе на примере «Общей педагогики». Обучение студента использованию инновационных методов обучения с помощью данной технологии создает основу для его будущей профессиональной деятельности.

### **SUMMARY:**

The article describes the use of the technology "Interesting Interest" and its stages in the preparation of students of a pedagogical university for activities to develop interest in learning using the example of "General Pedagogy". Teaching a student to use innovative teaching methods with the help of this technology creates the basis for his future professional activity.

Jahonda, bugungi kun kechagi kundan ancha farq qilayotgani barchamizga ma‘lum. Kundan kun fan, texnika va texnologiyalarni rivojlanishi, eski uslublarning misli ko‘rilmagan mo‘jizaviy takomillashgani, ishlab chiqarish jarayonlarining taraqqiyotini, mahsulotning sifatini tubdan yaxshilanishi va yangilanishiga turtki bo‘lmoqda. Shu bilan birga ta‘lim sohasida ham jahon

standartlariga mos ravishda ta'lim sifatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni tadbqiq etishni kun tartibiga qo'yadi.

Yurtboshimiz, Sh.Mirziyoyev, ta'kidlaganidek: "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi [1]".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-oktyabr 2019- yildagi PF-5847-sonli "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida asosiy vazifalardan biri etib oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va pedagoglarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish[2] belgilangani pedagogik oliy ta'lim talabalarini ham yetuk mutaxassis etib tayyorlash, ularni bo'lg'usi pedagogik faoliyatida o'quvchilarni o'quv motivatsiyasini oshirish, bilishga qiziqishlarini rivojlantirish masalasining ahamiyatini oshiradi hamda kadrlar tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

«Texnologiya» - bu materiallar, yoki yarim fabrikatlarni olish, ishlov berish va qayta ishlash usullarini ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiy fandır. «Texnologiya» atamasi qadimgi Yunonistonda paydo bo'ldi va u, ikkita so'z – «texne» - san'at va «logos» - o'rganish – dan iborat [3, b.14]. Ushu fan qadimda yakka tartibda bitta mahsulotni bir kishi emas bir nechta qo'ldan o'tkazishdan so'ng tayyorlanish, ya'ni kengaytirilgan ishlab chiqarish. Zamonaviy rivojlanish, fan jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanganligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi, o'qituvchilik faoliyati ham, boshqa ishlab chiqarish faoliyatlaridek, faoliyat turi ekanligi bilan bog'liqdir [3, b. 18].

Pedagogik texnologiya - bu o'z oldiga ta'lim shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo'yishni, texnika va inson resurslarini va ularni o'zaro ta'siri aloqasini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli yondashuvidir.(YUNESKO)



N.N.Azizxo‘jayevaning fikricha, pedagogik texnologiya o‘ziga xos va potensial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishish uchun, pedagogik tizimning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta’lim tizimi doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi.

O‘qitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida talaba va o‘qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega bo‘ladi bunday texnologiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin [4, b. 118]: pedagogik jarayonda shaxsni ko‘zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya (Sh.A.Amonashvili texnologiyasi); o‘quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o‘qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi); o‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi va N.P.Guzikning o‘qitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi); o‘qitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S.Graniskaya va V.D.Shadrikovlar texnologiyasi); o‘qitishni dasturlash texnologiyasi (B.P.Bespalko).

“Umumiy pedagogika” fanini o‘qitish jarayonida talabalarda o‘quvchilarni bilishga qiziqishini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlash, o‘z navbatida mazkur jarayonni amaliylashtirishni, ya’ni ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda pedagogik texnologiyani tatbiq etishni talab etadi.

Pedagogik texnologiya rejalashtirilgan o‘qitish natijalariga erishishni kafolatlaydigan va takrorlaydigan o‘quv jarayonini tadqiq etadi.

O‘quv jarayoniga texnologiyalarni kiritishning eng afzalliklari kutiladigan natijalarning oldindan aniqlanishi, ana shu natijalarga asoslangan holda o‘quv maqsadini aniq belgilab olinishi, o‘z navbatida ta’lim maqsadini o‘quv vazifalarga aylantirilishi, ta’lim shakl, metod va vositalarining to‘g‘ri tanlab olinishini tashkil etadi. O‘quv jarayonini texnologiyalashtirishning umumiy tavsifi bilan quyida tanishish mumkin (1 – jadvalga qarang)

1 – jadval. O‘quv jarayonini texnologiyalashtirishning umumiy tavsifi

<b>Texnologiyaning umumiy tavsifi:</b>	
Maqsad va vazifalar	Talabalarda o‘quvchilarning bilishga qiziqishlarini rivojlantirishning muhimligini tushunishni shakllantirish. Talabalarni o‘quvchilarning qiziqishini rag‘batlantirish usullari va texnikasi bilan ta’minlash
Texnologiyaning asosiy tarkibiy qismlari	Nazariy asos: umumiy pedagogika, pedagogik nazariya va tarixi, pedagogik maxorat, metodologiya asoslarini o‘rganish. Amaliy ko‘nikmalar: innovatsion o‘qitish usullarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Tahlil va refleksiya: amalda qo‘llaniladigan usullarning samaradorligini baholash.



“Umumiy pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi	Qo‘llanmaning tuzilishi: bo‘limlar, mavzular, asosiy tushunchalar. Qo‘llanmada keltirilgan bilishga qiziqishlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan metodlar va usullardan misollar. Talabalar uchun vazifalar va mashqlar.
Xulosa	Pedagogikada bilim va usullarni doimiy ravishda yangilab turishning ahamiyati. O‘qituvchilarni tayyorlash sohasida keyingi tadqiqotlar va ishlanmalar istiqbollari.

O‘quv jarayonini texnologiyalashtirishning umumiy tavsifiga tayangan holda, tadqiqot doirasida “Umumiy pedagogika” fanini o‘qitishda talabalarni o‘quvchilarning bilishga qiziqishlarini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqildi, uni “Qiziqib qiziqtirish texnologiyasi” deb nomladik.

Pedagogik oliy ta’lim talabalarini o‘quvchilarning bilishga qiziqishlarini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlash ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, nazariy asoslarni chuqur tushunishni va turli usullarni amaliy qo‘llashni talab qiladi. "Umumiy pedagogika" o‘quv qo‘llanmasi ushbu jarayonda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi va talabalarni muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi. “Qiziqib qiziqtirish texnologiyasi” uch bosqichdan iborat.

Texnologiyaning birinchi bosqichi **“Bilishga qiziqishga oid bilimlarga ega bo‘lish”** deb nomlanib, quyida belgilangan vazifalarni hal etish asosida amalga oshiriladi:

Fanga doir bilimlar bilan tanishtirish va ushbu jarayonning mazmuniga bilishga qiziqish, motivatsiya, intiluvchanlik kabi tushunchalarni singdiriladi va jarayon davomida yo‘naltiruvchi savol-javoblar, ochiq va yopiq testlar, muommoli savollar bilan talabalarni qiziqish va qiziqitira olish faoliyatiga tayyorgarlik holatini va kelgusida mos vazifalar qo‘yish uchun aniqlab olinadi.

Fan doirasidagi bilimlarni egallashda o‘quv materialini bilan tanishtiriladi va talabada qiziqish va qiziqitira olish ko‘nikmalari shakllana boshlaydi. Mazkur bosqichda “Aqliy hujum”, uninterfaol usullar, muommoli vaziyatlardan foydalaniladi. Bu jarayonda talabalarga individual yondashish tavsiya etiladi, chunki mustaqil ishlash talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ochib beradi. Natijada, o‘z shaxsiy fikr, shaxsiy yondashuv, shaxsiy qaror qabul qilish, fan doirasidagi o‘z qiziqishlarini tahlil qilish, olgan bilimlar asosida o‘quvchilarni qiziqitira olish ko‘nikmalari shakllanadi.

Texnologiyaning ikkinchi bosqichi **“Mavzularni bilishga qiziqishni rivojlantirish faoliyatiga yo‘naltirish”** deb nomlanib, mazkur bosqichda



mavzularni o'rganishda talaba shaxsini qiziqtirish va qiziqtirishni o'rgatish vazifalari hal etiladi. Birinchi bosqichda talabada shakllantirilgan ko'nikmalari malaka darajasida rivojlantiriladi. Mavzularni o'rganishda qiziqtiruvchi metodlar va strategiyalarni o'rganish va qo'llash. Mazkur bosqichda, savol-javob usuli: talabalarning fikrlarini jalb qilish va ularni faol ishtirok etishga undash; vizuallashtirish: ma'lumotlarni grafik, diagramma yoki infografika orqali taqdim etish; texnologiyalarni qo'llash: multimedia taqdimotlari, onlayn platformalar va resurslardan keng ko'lamlil foydalanish.

Texnologiyaning uchinchi bosqichi **“Mavzularni qiziqish va qiziqtirish faoliyatiga olib keluvchi tizimga aylantirish”** deb nomlanib, mazkur bosqichda talabalarda nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish natijasida o'quvchilarni bilishga qiziqishini rivojlantirish faoliyatiga tayyorlanadi.

Bilishga qiziqishni rivojlantirishda muommoli o'qitish metodi, turli muommoli vaziyatlarda to'g'ri yechim topa olish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali va o'rinli hisoblanadi. Shuningdek ushbu muommoli vaziyatlarda kognitiv sohaga ta'sir etuvchi, mantiqiy fikrlashni va aqlni charhlovchi intellektual metodlardan, innovatsion ta'lim usullaridan foydalanishni o'rganish orqali kelgusidagi kasbiy faoliyatida qo'llash uchun zamin yaratadi.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: - “O'zbekiston”, I jild. NMIU, 2017, – 592 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-oktyabr 2019- yildagi PF-5847-sonli “O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son
3. Axmetjanov M.M., Ta'lim texnologiyalari. Darslik. – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: «Fan va texnologiya», 2018. - 341 bet.-14 b
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.:O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006 – 160 b. - 118 b.